



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Shayxiyev Boburbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-1886-0840

boburbekshayxiyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirish yo'llari, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy ahamiyati hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank resurs bazasining tarkibiy tuzilmasi, uning likvidlikni boshqarish, kreditlash salohiyatini kengaytirish va risklarni minimallashtirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank resurs bazasiga jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish, depozit va nodavlat moliyaviy manbalarni diversifikatsiyalash, resurslar qiymatini optimallashtirish hamda banklar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari resurs bazasi samaradorligini oshirish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, resurs bazasi, bank resurslari, moliyaviy resurslar samaradorligi, bank likvidligi, kreditlash salohiyati, resurs siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank raqobatbardoshligi.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕСУРСНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Шайхиев Бобурбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются пути повышения эффективности ресурсной базы коммерческих банков, ее экономическая значимость в обеспечении устойчивости банковской деятельности, а также роль в повышении эффективности использования финансовых ресурсов. В исследовании с теоретической и практической точек зрения рассматриваются структура ресурсной базы банков, ее значение в управлении ликвидностью, расширении кредитного потенциала и минимизации финансовых рисков. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования механизмов привлечения свободных денежных средств населения и хозяйствующих субъектов в ресурсную базу банков, диверсификации депозитных и недепозитных источников финансирования, оптимизации стоимости ресурсов, а также повышению конкурентоспособности банков. Результаты исследования способствуют выявлению возможностей укрепления финансовой устойчивости банковской системы и поддержки экономического развития за счет повышения эффективности ресурсной базы коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, банковские ресурсы, эффективность финансовых ресурсов, банковская ликвидность, кредитный потенциал, ресурсная политика, финансовая устойчивость, конкурентоспособность банков.

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS

Shaykhiyev Boburbek*Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of ways to increase the efficiency of the resource base of commercial banks, its economic significance in ensuring the stability of banking activities, and its role in enhancing the efficient use of financial resources. The study examines the structural composition of the bank resource base and its importance in liquidity management, expansion of lending capacity, and minimization of financial risks from both theoretical and practical perspectives. Particular attention is paid to improving mechanisms for attracting idle funds of households and business entities to the bank resource base, diversifying deposit and non-deposit funding sources, optimizing the cost of resources, and increasing the competitiveness of banks. The research findings contribute to identifying opportunities to strengthen the financial stability of the banking system and support economic development through improving the efficiency of the resource base of commercial banks.*

Keywords: *commercial banks, deposit base, bank deposits, financial resources, bank liquidity, lending capacity, deposit policy, financial stability, bank competitiveness.*

Kirish.

Bugungi kunda jahon moliya tizimida kechayotgan transformatsion jarayonlar, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi hamda moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitining kuchayishi tijorat banklaridan barqaror, yetarli va samarali shakllantirilgan resurs bazasiga ega bo'lishni talab etmoqda. Mazkur sharoitda bank faoliyatida resurs bazasining samaradorligi likvidlikni boshqarish, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asosda tadqiq etish, uning tarkibiy tuzilmasi va resurslardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini isloh qilish va uni zamonaviy bozor mexanizmlariga moslashtirish jarayonlari so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz Mirziyoyev (2025) tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank resurs bazasiga faol jalb etish hamda moliyaviy resurslar bilan bog'liq munosabatlarni rivojlantirish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Mazkur holat tijorat banklari resurs bazasini kengaytirish bilan bir qatorda, undan foydalanish samaradorligini oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Davlat rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, ayrim fuqarolarda o'z daromadlarini bank tizimi orqali rasmiylashtirish va moliyaviy aktivlarini bank muomalasiga jalb etish bilan bog'liq ishonchsizlik holatlari mavjud. Shu bois huquqiy kafolatlar, moliyaviy shaffoflik va barqaror ishonch muhitini shakllantirish tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv bank resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanishda institutsional hamda ijtimoiy omillarning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, resurs bazasining yetarli, barqaror va optimal tarkibda shakllanishi tijorat banklarining tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytiradi, kreditlash jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi hamda bank risklarini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, resurs bazasining tarkibiy tuzilmasi, muddatlar va valyuta nisbatlari bank likvidligi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish yo'llarini kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganish zaruratini taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari resurs bazasi va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillar davomida muhim ilmiy tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik funksiyasini amalga oshiruvchi asosiy institutlar sifatida talqin qilinib, ular tomonidan shakllantirilgan resurslar jamg'armalarning samarali investitsiyalarga yo'naltirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari resurs bazasining barqaror, yetarli va diversifikatsiyalashgan holda shakllanishi hamda undan foydalanish samaradorligining oshirilishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, likvidlikni mustahkamlash va kreditlash salohiyatini kengaytirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Jumladan, Blickle, Li, Lu, Malarning (2025) tadqiqoti bo'yicha "deposit flightiness" - ya'ni depozitlarning birdan ko'p chiqib ketish xavfi - bank barqarorligiga bevosita ta'sir qilishi mumkin, bu esa depozit bazasini mustahkamlash strategiyasida diversifikatsiya va xavf boshqaruvining zaruratini ko'rsatadi.

Bank depozitlarining likvidlik va moliyaviy barqarorlikdagi ahamiyatini Thakor Anjan va Edisonlarning (2024) tadqiqotlari shuni ta'kidlaydiki, banklar yaxshi kapitalizatsiyaga ega bo'lsa, nafaqat likvidlik yaratadi, balki depozitlar pastlash davrida ham kredit faoliyatini davom ettira oladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda banklarning moliyaviy resurs bazasi va xatarlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida e'tiborga olinadi. Berger va Bouwman (2013) moliyaviy inqirozlar davrida bank kapitali va depozit bazasining banklar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, barqaror depozit bazasiga ega banklar inqiroz sharoitida ham kreditlashni nisbatan yuqori darajada saqlab qolishini isbotlaydi.

Demirgüç-Kunt va Martinez Peria (2015) global moliyaviy inqiroz davrida banklarning resurs bazasi tuzilmasini tahlil qilib, chakana depozitlarga tayanadigan banklar tashqi moliyalashtirishga ko'proq bog'liq bo'lgan banklarga nisbatan barqarorroq faoliyat yuritganini aniqlaydi. Ushbu xulosa depozit bazasining bank tizimi barqarorligidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Allen va Galelar (2004) esa bank tizimida raqobat darajasi, depozitlar va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi munosabatni o'rganib, raqobatning kuchayishi depozitlar uchun kurashni jadallashtirishi, ammo yetarli institutsional nazorat bo'lmagan sharoitda bu jarayon tizimli xatarlarni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv bank transformatsiyasi jarayonida depozit siyosatini ehtiyotkorlik bilan olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Banklarning likvidlikni ta'minlashdagi funksiyasi Kashyap, Rajan va Stein (2002) tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular banklarni "likvidlik provayderlari" sifatida tavsiflaydi. Mualliflar bank depozitlari va kredit liniyalari o'rtasidagi muvozanat bank tizimining samarali ishlashini ta'minlashini qayd etadi. Acharya va Mora (2015) esa inqiroz davrida banklarning depozitlarga tayanishi kredit taklifini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynashini empirik jihatdan asoslaydi.

Thi Anh Nhu Nguyen va boshqalar (2022) kabi tadqiqotchilar bankaloqa institutlar sifatining bank depozitlarining o'sishiga sezilarli ta'sir qilishi mumkinligini aniqladilar; ya'ni shaffoflik, huquqiy me'yorlar va tartib-intizom bank deposit mobilizatsiyasi uchun muhimdir.

Han va Meleckylarning (2013) tadqiqotlarida bank depozitlarining kengroq omonatchilar bazasiga ega bo'lishi inqiroz paytida bank depozit bazasining chidamliligini oshiradi, ya'ni depozitlar ko'p jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, bank tizimi barqarorroq bo'ladi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari resurs bazasi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kreditlash hajmini barqaror kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bank tizimini transformatsiyalash sharoitida bank resurslari tijorat banklari uchun ichki, nisbatan arzon va barqaror moliyaviy manba sifatida ularning tashqi moliyaviy xatarlar va bozor

tebranishlariga nisbatan chidamliligini oshiradi. Mazkur xulosalar ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shakllantirib, O'zbekiston bank tizimi misolida tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish zarurligini asoslab beradi.

Shu bilan birga, ayrim banklarga xos omillar, jumladan bank faoliyati samaradorligi hamda bank filiallari tarmog'ining kengayishi resurs bazasining o'sish sur'atlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. Ushbu holat tadqiqot natijalari asosida o'tish davridagi mamlakatlar uchun muhim xulosani ilgari suradi: bunday mamlakatlarda institutsional sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki aynan mazkur omillar tijorat banklari resurs bazasining barqarorligi va undan foydalanish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyosiy tahlil, retrospektiv va istiqbolli tahlil, shuningdek empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usuli asosida jahon amaliyotida tijorat banklari resurs bazasini samarali shakllantirish va undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy ahamiyati mamlakatimiz bank tizimida mavjud holat bilan solishtirildi hamda ushbu asosda tegishli ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ikki pog'onali bank tizimi izchil shakllanib, rivojlanib bormoqda, bank xizmatlarining turlari va sifati sezilarli darajada takomillashmoqda hamda xorijiy banklar bilan o'zaro hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda. Biroq tijorat banklarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq ayrim masalalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur holat tijorat banklari resurs bazasini shakllantirish jarayonida uning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish, resurslar o'rtasidagi optimal nisbatlarni aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu nisbatlar normativ talablar hamda banklarning strategik faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bank resurs bazasining optimal tuzilishi deganda uning tarkibiy elementlari o'rtasida shunday mutanosiblikni ta'minlash tushuniladiki, bu bankning asosiy strategik maqsadlariga balans likvidligini saqlash, kapital yetarliligini ta'minlash hamda bank faoliyati samaradorligini oshirishga bir vaqtning o'zida erishish imkonini beradi. Mazkur yondashuv tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirishning muhim nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Depozitlar barqarorligining vaqt davomida qanday o'zgarishini tushunish uchun, avvalo, barcha depozitlar bir xil darajada barqaror emasligini ta'kidlash zarur. Ayrim omonatchilar depozitlarning xavfsizligi va to'lov qulayligini ustuvor deb bilib, foiz stavkalari o'zgarishi yoki bozor tebranishlaridan qat'i nazar, o'z mablag'larini banklarda saqlab qolishga moyil bo'ladilar. Boshqa bir guruh omonatchilar esa bank depozitlariga nisbatan kamroq bog'langan bo'lib, muqobil moliyaviy instrumentlarda yuqoriroq daromad imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan o'z mablag'larini tezkor ravishda yo'naltirishga intiladilar.

Muayyan davrda bank depozitlarini tanlagan investorlar muqobil investitsiya vositalarini, xususan, pul bozori fondlarini afzal ko'ruvchi investorlar bilan solishtirganda foiz stavkalariga nisbatan kamroq sezgir bo'ladilar. Shu bilan birga, bank tizimiga yangi jalb etilayotgan depozitlar, odatda, mavjud omonatchilar bazasiga nisbatan foiz stavkalariga ko'proq sezgir bo'lib, bu holat umumiy depozit bazasining beqarorlik darajasini oshirishi mumkin. Tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirish jarayonida nafaqat depozitlar hajmini kengaytirish, balki ularning sifat tarkibini, barqarorlik darajasini va foiz stavkalariga sezgirlikni inobatga olish muhim ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, barqaror va uzoq

muddatli depozitlarni rag'batlantirish tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Xususan, an'anaviy va noan'anaviy pul-kredit siyosati o'rtasida yangi o'zaro bog'liqlik aniqlangan: agar foiz stavkalarining oshirilishi miqdoriy yengillashtirish (QE) natijasida bank tizimida zaxiralar va depozitlar hajmi yuqori bo'lgan davrda amalga oshirilsa, depozitlarning bank tizimidan chiqib ketish xavfi kuchayishi mumkin. Ushbu xavf darajasi banklarning risklarni boshqarish siyosati va aktivlarni joylashtirish strategiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Depozitlarning chiqib ketish xavfi bilan miqdoriy yengillashtirish o'rtasidagi mazkur o'zaro bog'liqlik shundan kelib chiqadiki, QE davrida depozitlar hajmining kengayishiga asosiy hissa qo'shuvchi iqtisodiy subyektlar, odatda, foiz stavkalariga nisbatan yuqori sezgirlikka ega bo'ladi. Natijada, keyingi davrlarda foiz stavkalari oshirilganda ushbu yangi omonatchilar yuqoriroq daromad izlab bank tizimidan ommaviy ravishda chiqib ketish ehtimolini kuchaytiradi.

1-jadval

Tijorat banklarining milliy valyutadagi depozitlar qoldig'i (mlrd. so'mda)

Sana	Jami	Milliy valyutada	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar
01.01.2024	241 686,6	169 515,7	63 651,1	105 864,6
01.02.2024	242 119,4	168 684,6	62 133,4	106 551,2
01.03.2024	237 937,6	169 807,0	64 481,2	105 325,8
01.04.2024	243 127,8	171 609,1	67 035,8	104 573,4
01.05.2024	248 570,0	176 238,8	68 031,4	108 207,5
01.06.2024	257 233,5	182 538,3	70 703,4	111 834,8
01.07.2024	265 472,1	190 076,4	73 383,0	116 693,3
01.08.2024	275 422,2	198 241,6	76 083,5	122 158,1
01.09.2024	283 138,5	205 345,5	81 268,6	124 076,9
01.10.2024	286 947,3	210 310,0	81 897,4	128 412,6
01.11.2024	295 947,8	215 877,7	83 740,2	132 137,5
01.12.2024	297 395,6	219 822,2	86 707,6	133 114,6
01.01.2025	308 692,3	231 234,6	95 621,9	135 612,7
01.02.2025	310 214,7	232 012,3	93 696,9	138 315,4
01.03.2025	319 375,3	239 348,2	98 143,7	141 204,5
01.04.2025	325 953,3	248 877,2	102 954,5	145 922,7
01.05.2025	339 160,2	256 513,4	103 515,5	152 997,8
01.06.2025	345 641,6	263 600,1	107 956,6	155 643,6
01.07.2025	355 620,8	271 629,0	110 018,2	161 610,8
01.08.2025	360 401,8	273 497,2	112 855,7	160 641,5
01.09.2025	363 725,2	280 769,9	117 440,0	163 330,0
01.10.2025	371 453,0	287 728,8	117 615,3	170 113,5

Manba: <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari 2024-2025 yillarda tijorat banklarining milliy valyutadagi depozitlar qoldig'i barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yil 1-yanvar holatiga milliy valyutadagi depozitlar qoldig'i 169 515,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil 1-oktabrga kelib ushbu ko'rsatkich 287 728,8 mlrd. so'mga yetgan. Bu holat bank tizimida milliy valyutadagi resurs bazasining izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Depozitlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy valyutadagi depozitlar qoldig'ida yuridik shaxslar depozitlari yetakchi ulushni egallab kelmoqda. Biroq tahlil davrida jismoniy shaxslar depozitlari hajmining tezroq o'sishi kuzatiladi. Jumladan, 2024-yil boshida jismoniy shaxslar depozitlari 63 651,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil oktyabr oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 117 615,3 mlrd. so'mga yetgan. Bu esa aholining bank tizimiga bo'lgan

ishonchi mustahkamlanib borayotganini hamda aholi jamg'armalarining bank resurs bazasidagi rolini oshib borayotganini ko'rsatadi.

Milliy valyutadagi depozitlar hajmining o'sishi tijorat banklari resurs bazasining valyuta risklariga nisbatan barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy valyutadagi resurslar banklarning kreditlash faoliyatini ichki bozor sharoitlariga mos holda olib borish, aktiv va passivlar o'rtasidagi valyuta nomutanosibligini kamaytirish hamda likvidlikni samarali boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, jadval ma'lumotlari tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish jarayonida depozitlarning miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda tarkibiy muvozanatini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari o'rtasidagi optimal nisbat bank resurslarining barqarorligini kuchaytirib, bank faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Umumiy jihatdan, 1-jadval ma'lumotlari tijorat banklarida milliy valyutadagi depozitlar qoldig'ining barqaror o'sib borayotganini, bu esa bank resurs bazasining mustahkamlanishiga, moliyaviy barqarorlikning oshishiga va kreditlash salohiyatining kengayishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asosda o'rganish va depozit siyosatini takomillashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

2-jadval

Tijorat banklari depozitlari bo'yicha foiz stavkalari, (milliy va chet el valyutasi kesimida, o'rtacha tortilgan, yillik hisobda, %)

Depozit turi va muddati	Valyuta	Yanvar-sentabr oylari kesimida								
Jami muddatli depozitlar	Milliy	19,5	19,2	18,8	19,5	19,8	19,7	19,5	19,8	19,3
	Chet el	5,0	4,4	4,7	4,7	4,5	4,6	4,7	5,0	5,1
- 1 yilgacha bo'lgan	Milliy	18,0	17,0	17,2	18,3	18,4	18,8	18,2	17,8	17,6
	Chet el	4,0	3,2	3,1	2,6	2,3	3,1	2,9	2,8	2,8
- 1 yildan yuqori bo'lgan	Milliy	20,3	20,8	19,3	20,0	20,3	20,0	19,8	20,5	19,8
	Chet el	5,6	4,7	5,0	5,3	4,9	4,8	4,9	5,2	5,3
Jismoniy shaxslar muddatli depozitlari	Milliy	22,1	22,1	22,1	21,6	21,5	21,4	21,4	21,4	21,3
	Chet el	5,1	4,8	4,9	5,1	4,6	4,8	4,7	5,1	5,1
- 1 yilgacha bo'lgan	Milliy	20,8	20,7	20,7	20,7	20,6	20,6	20,6	20,7	20,7
	Chet el	3,1	3,0	3,0	2,9	2,9	3,0	2,9	2,9	3,1
- 1 yildan yuqori bo'lgan	Milliy	22,5	22,3	22,4	21,8	21,7	21,5	21,5	21,5	21,4
	Chet el	5,5	5,3	5,3	5,5	4,8	5,1	5,0	5,4	5,4
Yuridik shaxslar muddatli depozitlari	Milliy	16,8	16,9	16,4	17,5	17,9	17,9	16,9	17,7	17,1
	Chet el	4,8	4,1	4,4	4,3	4,3	4,2	4,7	4,7	5,1
- 1 yilgacha bo'lgan	Milliy	16,7	16,3	16,3	17,6	17,7	18,0	16,8	16,5	16,0
	Chet el	4,4	3,4	4,5	2,5	1,6	3,3	3,5	2,1	0,7
- 1 yildan yuqori bo'lgan	Milliy	16,8	18,0	16,5	17,3	18,1	17,8	16,9	18,5	17,7
	Chet el	5,8	4,3	4,4	5,1	5,2	4,4	4,7	4,8	5,2

Manba: <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda tijorat banklarining depozitlar bo'yicha foiz siyosati resurs bazasini shakllantirish va undan samarali foydalanishga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Xususan, milliy va chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalari o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, bu banklarning ichki resurslarni rag'batlantirish hamda valyuta risklarini boshqarish strategiyasini aks ettiradi. Milliy valyutadagi jami muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari yil davomida o'rtacha 19,0-20,0 foiz oralig'ida shakllangan. Ayniqsa, 1 yildan yuqori muddatli depozitlar bo'yicha stavkalarining nisbatan yuqori darajada belgilanishi banklar tomonidan uzoq muddatli va barqaror resurslarni jalb etishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ko'rsatadi. Bu holat tijorat banklari

resurs bazasining barqarorligini oshirish va kreditlash jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari yuridik shaxslarnikiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu aholining jamg'armalarini bank tizimiga jalb etishga qaratilgan rag'batlantiruvchi depozit siyosatining mavjudligidan dalolat beradi. Mazkur yondashuv tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash hamda aholi omonatlari ulushini oshirish orqali resurslar barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalari esa milliy valyutadagiga nisbatan past darajada shakllangan bo'lib, asosan 4,0-5,5 foiz oralig'ida bo'lgan. Bu holat banklarning chet el valyutasidagi resurslarni cheklangan darajada jalb etish, valyuta risklarini minimallashtirish hamda milliy valyutadagi resurs bazasini kengaytirishga yo'naltirilgan siyosatini aks ettiradi. Ayniqsa, chet el valyutasidagi qisqa muddatli depozitlar bo'yicha stavkalarining pastligi resurslarning yuqori likvidligini saqlashga qaratilgan ehtiyotkor yondashuvni ko'rsatadi. Umumiy jihatdan olib qaraganda, tijorat banklarining foiz siyosati resurs bazasining samaradorligini oshirishga qaratilganini, ya'ni depozitlarning muddatini uzaytirish, milliy valyutadagi resurslar ulushini kengaytirish hamda barqaror omonatchilar qatlamini shakllantirish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy asosda o'rganish va depozit siyosatini takomillashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan ilmiy-nazariy va empirik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari resurs bazasining samaradorligi bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bank resurs bazasining yetarli, barqaror va optimal tarkibda shakllanishi banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytiradi va moliyaviy xatarlar ta'siriga nisbatan chidamliligini oshiradi.

Empirik tahlil natijalari O'zbekiston tijorat banklarida milliy valyutadagi depozitlar hajmining 2024-2025 yillarda barqaror o'sib borayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar depozitlarining tez sur'atlarda ortib borishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganidan hamda aholi jamg'armalarining bank resurs bazasidagi ahamiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Bu holat bank resurs bazasining barqarorligi va uzoq muddatli moliyaviy manba sifatida depozitlarning rolini kuchaytiradi.

Foiz stavkalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarining depozit siyosati asosan milliy valyutadagi va uzoq muddatli resurslarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha yuqori foiz stavkalarining belgilanishi banklarning valyuta risklarini cheklash va ichki resurslar ulushini kengaytirishga qaratilgan ehtiyotkor strategiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga, chet el valyutasidagi depozitlar bo'yicha past foiz stavkalari bank resurs bazasini muvozanatlashtirish va likvidlikni boshqarish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy holatda, tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish jarayoni nafaqat resurslar hajmini ko'paytirish, balki ularning sifat tarkibi, barqarorligi, muddat tuzilmasi va foiz stavkalariga sezgirligini kompleks tarzda boshqarishni talab etishini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Milliy valyutadagi uzoq muddatli resurslarni rag'batlantirish. Tijorat banklari depozit siyosatida 1 yildan yuqori muddatli milliy valyutadagi depozitlarni rag'batlantirishga ustuvor ahamiyat qaratishlari lozim. Bu bank resurs bazasining barqarorligini oshirib, kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi.

2. Aholi omonatlarini jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish. Jismoniy shaxslar depozitlarining o'sish tendensiyasini inobatga olgan holda, omonat mahsulotlarini diversifikatsiyalash, raqamli omonat xizmatlarini kengaytirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi jamg'armalarini bank tizimiga yanada faol jalb etish zarur.

3. Resurs bazasining tarkibiy muvozanatini ta'minlash. Banklar jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari o'rtasida optimal nisbatni saqlashga intilishlari lozim. Bu resurs bazasining barqarorligini kuchaytirib, omonatchilar konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi.

4. Foiz risklarini boshqarish va depozitlar barqarorligini oshirish. Foiz stavkalariga yuqori sezgir bo'lgan depozitlar ulushining oshib borishi depozitlar "flight risk"ni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli banklar resurs bazasini boshqarishda foiz risklarini modellashtirish, barqaror omonatchilar qatlamini shakllantirish va aktiv-passivlarni muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirishlari zarur.

5. Institutsional ishonch va shaffoflikni kuchaytirish. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, huquqiy kafolatlar va moliyaviy shaffoflikni oshirish tijorat banklari resurs bazasining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi e'tiborga olinishi lozim.

Yuqoridagi xulosa va takliflar tijorat banklari resurs bazasini samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda real sektorni barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Acharya, V. V., & Mora, N. (2015). A crisis of banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 70(1), 1–43.

Allen, F., & Gale, D. (2004). Competition and financial stability. *Journal of Money, Credit and Banking*, 36(3), 453–480.

Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? *Journal of Financial Economics*, 109(1), 146–176.

Blickle K. et al. (2025) The Rise in Deposit Flightiness and Its Implications for Financial Stability //Liberty Street Economics.

Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M. S. (2015). Bank funding structures and risk: Evidence from the global financial crisis. *Journal of Financial Stability*, 20, 1–13.

Han R., Melecky M. (2013) Financial inclusion for financial stability: Access to bank deposits and the growth of deposits in the global financial crisis //World bank policy research working paper. – №. 6577.

Kashyap, A. K., Rajan, R., & Stein, J. C. (2002). Banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 57(1), 33–73.

Mirziyoyev Sh. (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

Nguyen T. A. N. (2022) The role of institutional quality in bank deposit growth in European transition economies //Finance Research Letters. – T. 47. – C. 102630.

Thakor A., Edison G.Y. (2024) Funding liquidity creation by banks //Journal of Financial Stability. – T. 73. – C. 101295.